



INKLYUZIV TA'LIM ISLOHATLARI VA ULARNING NAZARIY AHAMIYATI

Salohiddinova Sadoqat Sayriddin qizi

Sariosiyo pedagogika kolleji Maxsus fan o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada bugungi kunimiz uchun nisbatan yangi tushuncha bo'lgan inklyuziv ta'lim haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada ushbu tushunchaning bugungi kun uchun ahamiyati, respublikada inklyuziv ta'limning rivojlanishi borasida qilinayotgan ishlar, bu ishlar samarali natija berishi uchun e'tibor berilishi kerak bo'lgan jihatlar muhokama qilinadi.

KALIT SO'ZLAR: inklyuziv ta'lim, bola, ehtiyoj, pedagog ta'lim to'g'risidagi qonun, alohida ta'lim ehtiyojlari.

ABSTRACT: This article talks about inclusive education, which is a relatively new concept for today. The article also discusses the importance of this concept for today, the work being done on the development of inclusive education in the republic, and the aspects that should be paid attention to in order for these works to produce effective results.

KEY WORDS: inclusive education, child, need, pedagogue, law on education, special educational needs.

KIRISH

Respublikamizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi davlatimiz kelajagiga mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni mas'uliyatni his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab-



yashnashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib yetishishlariga katta umid bilan qaraladi.

Ayni shu o'rinda aytish kerakki, 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonunining 20-moddasida, Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Inklyuziv ta'lim –talim tashkilotlari uchun barcha bolalarga ta'lim berish imkoniyatidir. Ushbu ta'lim insonning asosiy xuquqi sifatida tushunishga asoslanadi. Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi inklyuziv ta'lim deyiladi

Inklyuziv ta'lim bu - nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Bu o'rinda inklyuziv ta'lim tizimini samarali olib borish uchun bu ta'lim tizimi ishtirokchilarini alohida ta'kidlash lozim. Shunga ko'ra inklyuziv ta'lim ishtirokchilar quyidagilar:

Oila

Mahalla

Maktab va mtt jamoasi

Tengdoshlar



Talim tizimi

Sog'liqni saqlash

Inklyuziv ta'limda, ta'lim berishning diqqat markazida bola turadi (o'quv rejasi emas) deb bu jarayonga yondashadi. Ushbu yondashuvlar bolalar har xil sharoitda o'qiydi, rivojlanadi, ma'lumotni har xil tezlikda qabul qiladi, degan e'tirofga asoslanadi. Bu ta'lim tizimi har bir bolaning shu qatorda maxsus ehtiyojli bolalarning ham ehtiyojlarini qondiradigan ta'lim muhitini yaratib berishga qaratilgan. Inklyuziv ta'lim g'oyalari ijtimoiy-madaniy nazariyalarga asoslanadi. Psixolog L. Vigotskiy (1896-1934) inklyuziv ta'lim g'oyasining asoschisidir. Uning nazariyasi orqali bolalar ijtimoiy muhitda eng samarali bilim oladilar. L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlariga ko'ra **“Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi”** Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.

MUHOKAMA

Davlatimizda bu ta'limga alohida e'tibor so'ngi yillarda ayniqsa samarali natija bermoqda. Buning yaqqol misoli sifatida “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident qarori qabul qilindi (PQ-4860, 13.10.2020 y.). Qaror bilan 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va uni 2020-2021 yillarda amalga oshirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” tasdiqlandi. Yuqoridagi qonun qarorlarning barchasi imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga qo'shish ularni tengqurlari qatori bilim olishlarini ta'minlash, nuqsonlariga qaramay yuksak marralarga erisha olishlariga ishonch uyg'otishdan iborat.

X. Jaskuin: «Mehrta bo'lgan ehtiyoj qancha bo'lishidan qat'i nazar, uning miqdori hisob-kitob qilinmaydi. Kam miqdorda bo'lsa-da, mehr berilmagan bola o'z qobig'iga berkinib oladi, yo'ldan adashadi va xudbinga aylanib qoladi. Bola toza havoga qanchalik



muhtoj bo'lsa, mehrga ham shunchalik muhtojdir», -deydi. Umuman olganda, rahmshafqat, mehr-muruvvat kabi xislatlar xalqimizga azal-azaldan xos bo'lib, buni bolalarga ham yoshligidan singdirish lozim. Bu borada inklyuziv ta'lim alohida o'rin tutadi. Ya'niykim inklyuziv ta'lim shunday bir ta'limki, u nafaqat alohida ta'limga muhtoj bola uchun, balki bu bola bilan ta'lim olayotgan sog'lom bola uchun ham yaxshi tarbiyadir.

Barcha bolalar nafaqat tashqi ko'rinishi, balki xulq atvori, his-tuyg'ulari, xarakter xususiyatlari va temperamentni ifodalash usullari bilan ham butunlay farq qiladi. Har bir bolaning faqat o'z hayot yo'lini belgilaydigan va uni o'ziga hos qiladigan xislatlari bor. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, muayyan ta'lim ehtiyojlariga ega bola o'z tengqurlari orasida o'qisa, bu ko'proq samara beradi.

Birinchidan, bolaning rivojlanishida, ikkinchidan, jamiyatni bunday bolalar atrofida bolalarning rivojlanishiga yordam beradi. Negaki, alohida ehtiyojli bolalar bilan birga o'qiydigan o'g'il-qizlarga ularga yordam berish, achinish, javobgarlik tuyg'usi shakllanadi, ko'pincha bunday sharoitlarda o'sib ulg'ayayotgan bolalarga xos xudbinlik kayfiyati yo'qoladi. Buning samarasida bolalar birgalikda ishlash, bir-birini qo'llab-quvvatlashni o'rganadi. Bu muhitda tarbiyalanadigan bolalar o'zlaridagi farqni sezmaydi, balki buni faqat ota-onalar sezadi, xolos. Shu bois bunday muloqot alohida ehtiyojli va boshqa bolalar, o'qituvchilar, jamiyat, mahalla, oilalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'niy ularning barchasida alohida ehtiyojli insonlarga nisbatan ijobiy munosabat rivojlanadi.

“Pedagog bilishi kerak bo'lgan birinchi narsa –bu inson tanasining tuzilishi va hayoti –inson tanasining anatomiyasi va fiziologiyasi va uning rivojlanishi”, - deb yozgan N. K. Krupskaya, ” Aks holda siz yaxshi pedagog bo'la olmaysiz, farzandni to'g'ri tarbiyalay olmaysiz.”

Ta'lim va tarbiyaning pedagogic samaradorligi bolalarning anatomic va fiziologik xususiyatlarini hisobga olish darajasiga, ma'lum omillar ta'siriga sezgirligi bilan ajralib turadigan rivojlanish davrlariga, shuningdek sezgirlikning kuchayishi va tana qarshiligining pasayishi davrlariga bog'liq.



XULOSA

Maxsus bolalarga kerak bo'lgan birinchi narsa kattalar ushbu xususiyatni tushunishi va mavjud vaziyatni hisobga olgan holda talablar qo'yishi kerak. Odamlarning hamma xususiyatlari ham bir xil emas, shuning uchun birovga, ikkinchisiga yaxshi bo'lgan narsa juda ham qiyin, amalga oshmas bo'lishi mumkin. "hamma kabi bo'lishi" prinsipi faqat bolaga zarar yetkazish uchun ishlaydi. Bolalar har xil, ammo ular bir xil yangi narsaga, ota-onalarining cheksiz sevgisiga erishib, g'alaba quvonchini boshdan kechirishni istaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (23.09.2020) //
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son.
3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi.(<https://lex.uz/docs/-5044711>
5. "Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini individuallashtirish. Alohida ehtiyojli bolalar inklyuziyasi". Toshkent- 2020 Metodik qo'llamna